




QASHQADARYO VILYOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatining
sanoat ishlab chiqarishi
2023- yil yanvar - mart oylari
(dastlabki ma'lumot)



Tel.: 75-221-32-36
www.qashstat.uz

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 942 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 879 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,8 % i) Qarshi shahriga, 505 tasi (10,2 %) Kitob tumaniga, 424 tasi (8,6 %) Yakkabog' tumaniga, 384 mingtasi (7,8 %) G'uzor tumaniga va 358 tasi (7,2 %) Shahrisabz shahriga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan (1-aprel holatiga ko'ra)



Jami yangi tashkil etilgan (1-aprel holatiga ko'ra)



Qarshi sh.




Faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan

Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari




Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatdagi korxonalar tomonidan 6 394,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 103,2 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (10 926,6 ming so‘m), G‘uzor tumanida (4 494,3 ming so‘m) hamda Kasbi tumanida (2 553,7 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 831,8 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



ming. so‘mda o'sish sur'ati, % da

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4 204,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 65,8 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani (27,9 %), G'uzor tumani (15,3 %), Qarshi shahri (11,4 %), Kasbi tumani (8,3 %) hamda Qarshi tumani (4,8 %) hissasiga to'g'ri keldi.



yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Chaqiq tosh ming t.	8,5	12,7	4,2
Neft, ming t.	5,2	2,7	- 2,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m	184,7	21,7	- 163,0
Gaz kondensati, ming t.	29,8	25,9	- 3,9

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oyalarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 204,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 65,8 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Dizel yoqilg'isi	Paxta linti	Kaliy xlorid
2023 23,9 m.	2023 138,6	2023 111,4
2022 240,0	2022 45,4	2022 87,2
2021 18,2	2021 2,0 m.	2021 102,8
O'simlik yog'i (tozalangan)	Oltингugurt	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023 125,5	2023 79,5	2023 42,9
2022 40,2	2022 88,0	2022 95,3
2021 60,8	2021 113,6	2021 100,6

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,3 % (21,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,7 % (1,9 %), quyi texnologiyali 42,6 % (44,5 %)ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,5 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 26,8 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,8 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,9 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,7 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 73,5 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 22,5 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 131,1 %), 13,2 ming tonna kalava ip (138,8 %), 517,8 ming. litr aroq mahsulotlari (81,7 %) hamda 15,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (42,9 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Dezil yoqlig'isi ming t.	0,02	56,1	56,08
Paxta chigit'i ming t.	24,8	39,6	14,8
Kalava ip ming t.	7,4	13,2	5,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming t.	35,0	15,0	- 20,0
Paxta tolasi ming t.	16,5	22,5	6,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoiy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 316,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 752,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 95,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 40,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 96,4 % ni tashkil etdi, ishlab chiqarish hajmi 1 735,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 98,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 147,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 86,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 097,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 158,4 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 24,8 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyoq qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblar uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko’rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko’ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 55,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,7 mlrd. so’mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo’lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o’z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko’ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,02 % ni, o’tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 34,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,3 mlrd. so’mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 63,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 155,3	2 083,4	- 1 071,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	827,6	830,0	2,4


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 123,6 % ni hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 82,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3,5	2,9	- 0,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	14,7	26,4	11,7

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm




* tegishli davar uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1 116,8 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,0 %, uning jami sanoatdagi ulushi 17,5 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 66,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 33,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 64,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 35,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 117,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 116,7 % ga to'g'ri keldi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 711,9 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 17,1 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Mirishkor tumani (168,0 %), Muborak tumani (162,5 %) hamda Qarshi shahri (138,8 %) viloyat korxonalarini tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.




Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'limgan boshqa maqsadlarda ishlataladigan sanoat mahsulotlari.

Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 26,0 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 11,0 %, Yakkabog' tumani 7,2 %, Shahrисабз shahri 6,6 % ekanligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol tovarlarining ulushi




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 319,9 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 1 002,4 ming so'mni, Muborak tumanida – 558,0 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 504,5 ming so'mni, Chiroqchi tumanida – 471,3 ming so'mni va Mirishkor tumanida 401,1 ming so'mni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 17,3 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 12,8 % ni, Koson tumani 6,8 % ni, Nishon tumani 5,9 % ni tashkil etdi.




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,8 % ni, Chiroqchi tumaniga 10,6 % va Shahrisabz tumaniga 6,3 % ekanligi kuzatildi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 418,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,8 % ni tashkil etgan.

